

ETNIK GURUHLAR PSIXOLOGIYASI TIZIMIDA ETNOSENTRIZMNING YUZAGA KELISH BOSQISHLARI

Mambetiyarova Venera Reyimbaevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Pedagogika psixologiya kafedrası
o'qituvchisi.

Xojametova Feruza Amangeldi Qızı

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Pedagogika psixologiya kafedrası Amaliy
psixologiya yo'nalishi studenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14328529>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxslar va etnik guruhlar orasida keng tarqalgan etnosentrizm tushunchasining ilimiy ma'nosi, vujudga kelish jarayonlari va bosqichlari, shuningdek uning ahamiyati haqida to'qalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Etnik guruhlar, intolerantlik, etnopsixologiya, etnosentrizm, multikulturalizm, madaniy nisbiylik.

STAGES OF ETHNOCENTRISM APPEARANCE IN THE PSYCHOLOGY OF ETHNIC GROUPS

Abstract. In this article, we will dwell on the scientific meaning of the concept of ethnocentrism, which is widespread among individuals and ethnic groups, the processes and stages of its emergence, as well as its importance.

Key words: Ethnic groups, intolerance, ethnopsychology, ethnocentrism, multiculturalism, cultural relativism.

ЭТАПЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ЭТНОЦЕНТРИЗМА В ПСИХОЛОГИИ ЭТНИЧЕСКИХ ГРУПП

Аннотация. В данной статье мы остановимся на научном значении понятия этноцентризма, распространенного среди отдельных лиц и этносов, процессах и этапах его возникновения, а также его значении.

Ключевые слова. Этнические группы, нетерпимость, этнопсихология, этноцентризм, мультикультурализм, культурный релятивизм.

Hozirgi globallashuv davriga kelib odamlar orasida o'z millatini yuqori hurmatga loyiq ko'rish va shuning natijasida boshqa millat vakillarga past nazarda qarash, ularning urf-odatlarini, milliyligini mensimaslik yoki ularga hurmatsizlik bildirish kabi vaziyatlar ko'plab kuzatilmoqda.

Albatta, o'z millatini hurmat qilish, qadrlash va shu millatga tegishliligidan faxrlanish ruhida tarbiyalanish juda muhim. Lekin, boshqa millat vakillarni hurmat qilmaslik, ularning fikrlarini va dunyoqarashlarini qadrlamaslik darajasiga olib keluvchi etnosentrik tarbiyaning salbiy oqibatlari juda katta hisoblanadi. Chunki yuqorida keltririlganlar kabi nojoyi xatti-xarakatlar natijasida millatlar o'rtasidagi do'stlik, bag'rikenglik rishtalari uzulib, ular o'rnini o'chlik, bir-birlariga adovat kabi tuyg'ular egallab bormoqda. Albatta, bunday salbiy omillarning oldini olish va ularga chek qo'yish uchun biz ular haqida to'lig'iroq ma'lumotga ega bo'lishimiz zarurdir. Ushbu maqola davomida biz etnosentrizm deb nomlanuvchi tushuncha haqida va uning kelib chiqish sabablari, uning ahamiyatlari, shuningdek uning ahamiyatlari bilan tanishib o'tamiz.

Albatta, o'zini boshqalardan yuqori deb hisoblash, ularning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilmaslik ham insoniylik, ham qonuniy mezonlar nuqtayi nazaridan to'g'ri deb tan olinmaydi. Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan siyosat va davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar ham buning dalilidir. Bosh qomusimiz, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangilangan tahririning 19-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanligi belgilab qo'yilgan. Ushbu qoidadan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida etnik teng huquqlilik prinsipiga alohida ahamiyat berilgan. Bu prinsip, barcha fuqarolar, ularning etnik kelib chiqishidan qat'iy nazar, teng huquqlilikka ega ekanligini bildiradi. Etnik teng huquqlilik deganda, O'zbekiston fuqarolarining barcha millat va elatlarga mansubligiga qarab, bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishi tushuniladi. Barcha etnik guruhlar va millat vakillari qonun oldida tengdirlar, va ular o'zlarining milliy madaniyati, tili va urf-odatlarini saqlash huquqiga ega. Bu prinsip O'zbekistonda jamiyatda etnik hamjihatlik, tolerantlik va murosani rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, etnik guruhlariga nisbatan hech qanday kamsitish yoki diskriminatsiya qilish ta'qiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi etnik teng huquqlilikka oid asosiy nuqtalar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin. Teng huquqlilik: Barcha fuqarolar, ularning etnik kelib chiqishidan qat'iy nazar, bir xil huquqlarga ega. Ular o'z madaniyati, tili va an'analari bilan faxrlanishlari va ularni rivojlantirishlari mumkin. Kamsitmaslik: Etnik guruhlar o'rtasida hech qanday kamsitish, diskriminatsiya yoki huquqiy farq qo'yilmaydi. Har bir inson teng huquqlarga ega. Madaniyatni saqlash: Fuqarolar o'z milliy madaniyatini va an'analari bilan yashash huquqiga ega bo'lib, davlat bu huquqni himoya qiladi.

Shu va shu kabi bir qator prinsiplar O'zbekistonda ko'p millatli jamiyatni birlashtirish, o'zaro hurmat va murosani mustahkamlashga shuningdek, mamlakatda etnik va dini bag'rikenglikni, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga asos bo'ladi.

Ekstremizm va terrorizm agressiv kayfiyatdagi kichik bir guruh kishilarning aholining katta qismiga nisbatan zo'ravonlik xatti-harakatlarida ko'rinib, spetsifik ijtimoiy-psixologik fenomenlarda asoslanadi. Bu fenomenlar etnoslararo, konfessiyalararo, irqalararo intolerant munosabatlarning psixologik asosini tashkil qilib, odamlarni ongsiz ravishda tashqi ko'rinishi, boshqalarini xulqi, boshqacha qarashlari va qadriyatlarini o'xshamaganlarini "o'zlariniki"ga va "begonalar"ga ajratishlariga tayanadi.

Intolerantlik - bu insonning xilma-xil belgilar bo'yicha boshqa kishilar bilan o'zaro aloqa munosabatlari va xulqida bag'rikenglikning namoyon bolmasligidir. Intolerant munosabatlar etnosentrizm, haddan tashqari ishontrish kabi psixologik shart-sharoitlarda shakllanadi. Intolerant xulqning yaqqol namoyon bolishiga diskriminatsiya, ksenofobiya, ekstremizm va terrorizm misol bo'ladi. Turli millat va elat vakillari o'rtasidagi farqlarning mavjudligi fanda aniqlangan fakt. Mana shu farqlar mavjudligi o'z navbatida ba'zan muavyan muammolarni keltirib chiqaradi. Ya'ni, har bir millat vakili boshqa bir millat vakili bilan muloqot qilganda, yoki uning madaniyatini, milliy qadriyatlarini o'rganganda, ularga nazar solganda, tabiiy bir holat yuz beradi. O'zgalar madaniyatini baholash jarayonida o'zidagi qadriyatlar, o'z madaniy boyliklari, afzalliklari va bilgan narsalarini o'zgalarni tushunish uchun vosita sifatida ishlata boshlaydi. Masalan, konkret vaziyatda biror o'zga millat vakilining xulq-atvorini tavsiflash uchun o'zimizning madaniyatimiz nuqtayi nazaridan solishtirib baholaymiz. Shunday sharoitlarda biz ochig'i hamisha ham unga nisbatan xolis, obyektiv bo'la olmaymiz. Chunki uning madaniy qadriyatlarini bilmagan holda o'zimizning bilganlarimizni unga qo'shib yoki ayirib fikr yuritamiz. Chunki baribir o'zimiznikini yaxshiroq bilamiz va o'zgalarni bilmasligimizni bo'yimizga olgimiz kelmaydi. Shu tariqa etnopsixologiyada ishlatiladigan va o'rganiladigan etnosentrizm hodisasiga duch kelamiz. Olimlar etnosentrizmni atrofda qilarning xulq-atvorini shaxsiy madaniy filtrlari orqali o'tkazib, tushuntirish va bayon etishdir deb ta'riflashadi. Aynan shu holatni barcha boshqa millat vakillari bilan muloqot qilganda nazarda tutish lozim ekanligi ta'kidlanadi.

Psixologik lug'atlarda etnosentrizm - o'z etnik guruhi va unga oid xulq andozalarini amalda boshqalarga baho berish uchun asos sifatida qabul qilishning namoyon bo'lishidir deyiladi. Bunda inson o'z millatiga tegishli xulq standartlarini o'zgalarnikidan ustuvor etib qo'yishga intiladi.

Ya'ni, etnosentrizm amalda begona madaniyat va tuzum, millat vakillariga nisbatan noxolis munosabatning shakllanishini izohlash uchun qollaniladigan tushunchadir. Bu tushuncha mohiyatan shaxsga xos bolgan egosentrizmning etnik analogidir.

Etnosentrizmning paydo bo'lish tarixi insoniyatning jamiyatlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalariga bog'liq. Bu tushuncha XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida ilmiy doiralarda aniq ifodalanib, sotsiologiya va antropologiyaning bir qismi sifatida ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uning ildizlari ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Xususan, Qadimiy jamiyatlarda insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida, qabilaviy va etnik guruhlar o'rtasidagi chegaralar aniq bo'lib, har bir guruh o'zining madaniyati va urf-odatlarini yuqori deb hisoblagan. Bu, asosan, o'zlarini yakkalanib, himoyalangan deb his qilishlari va boshqa guruhlarini dushman sifatida ko'rishlariga olib kelgan. So'ngra diniy tushunchalarning paydo bo'lishi bilan, dinlar etnosentrik qarashlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Masalan, ko'plab dinlar o'z xalqlarini "Xudoning tanlagan xalqi" sifatida tasavvur qilgan, bu esa boshqa xalqlarga nisbatan yuqori ma'naviy holatni anglatgan.

Miloddan avvalgi davrlarda esa, yunonlar o'z madaniyatlarini "tsivilizatsiya" deb hisoblab, boshqa xalqlarni "barbar" sifatida ta'riflagan. Rimda ham xuddi shunday qarashlar mavjud bo'lib, o'zlarining hududlaridan tashqaridagi xalqlarni "yovuz" yoki "qonunlarsiz" deb ko'rishgan. Misol tariqasida buyuk yunon faylasuflaridan biri Aristotel, o'z davrining madaniy normativlariga asoslanib, boshqa xalqlarni o'z madaniyatlariga nisbatan pastroq deb hisoblaganligini ko'rsatishimiz mumkin. O'rta asrlarga kelib diniy va siyosiy strukturalar etnosentrik qarashlarni yanada kuchaytirdi. Xristianlik, Islom, va boshqa dinlar ko'plab jamiyatlarda o'zining universal izlanishlarini ilgari surgan bo'lsa-da, shu bilan birga, o'z xalqlari va jamoalari uchun o'ziga xos madaniy identifikatsiyani mustahkamlashgan. Shundan kelib chiqib, Xochli janglar va boshqa diniy urushlar etnosentrizmning asosiy namoyishlaridan biri bo'lib, har bir tomon o'z dini va madaniyatini boshqalarga ustun deb hisoblagan.

XIX asrga kelibgina fransuz sotsiologi August Kont va boshqa ilmiy mutaxassislar etnosentrizmni tushunishga harakat qilishdi. Shunday qilib, etnosentrizmning ijtimoiy psixologik va madaniy asoslari tushunildi va ilmiy izlanishlar orqali yoritila boshlandi. Sotsiologiya va antropologiya ilmiy sohalarining rivojlanishi bilan, etnosentrizmning nazariy talqini paydo bo'ldi.

Kont va boshqa ijtimoiy nazariyotchilar, odamlarning o'z madaniyatlarini boshqa madaniyatlar bilan taqqoslashni tabiiy hol sifatida ko'rdilar. XX asrda esa William Graham Sumnerning "Etnosentrizm" nomli asari bilan, bu tushuncha akademik darajada mustahkamlandi.

Sumner etnosentrizmni "o'z guruhining madaniy va ijtimoiy normalarini boshqalarga qaraganda ustun qo'yish" sifatida ta'riflab, bu fenomenni jamiyatning ijtimoiy strukturalariga qanday ta'sir qilishi haqida izoh berdi.

XX asr oxirida va XXI asr boshlarida globalizatsiya jarayoni etnosentrizmning yangi shakllarini yuzaga keltirdi.

Global miqyosda madaniyatlar o'rtasidagi aloqalar kuchaygani sari, ba'zi guruhlar o'zlarining madaniyatlarini "yaxshi" yoki "to'g'ri" deb, boshqalarini esa "noto'g'ri" yoki "kam rivojlangan" deb hisoblashni davom ettirmoqda. Shu munosabat bilan multikulturalizm va madaniy nisbiylik kabi tushunchalar etnosentrizmga qarshi kurashish uchun taklif etildi, ammo ba'zi jamiyatlarda etnosentrizmning salbiy oqibatlari hali ham sezilarli darajada saqlanib qolgan.

Xulosa sifatida shuni takidlab o'tish joizki etnosentrizmning paydo bo'lish tarixi insoniyatning turli davrlarida o'zining ijtimoiy va madaniy kontekstiga mos ravishda shakllangan.

Dastlabki davrlarda o'z qabilasi yoki guruhiga nisbatan yuqori qarashlar shakllansa, keyinchalik ilmiy sohalarda etnosentrizm ijtimoiy psixologiya va antropologiya yordamida chuqurroq tahlil qilindi. Shuningdek, bugungi kunda globalizatsiya va madaniyatlararo aloqalar etnosentrizmni yangi shakllarda keltirib chiqarmoqda.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-y;
2. G.M.Andreeva "Sotsialnaya psixologiya" 1998-y;
3. V.M.Karimova Z.T.Nishanova, X.M.Alimov "Etnopsixologiya va Din Psixologiyasi" T:2020-y;
4. <https://www.wikipedia.org>
5. Elektronnaya biblioteka, <http://www.koob.ru>
6. "Психология на русском языке": <http://www.psvchology.ru/Library>
7. "Мир психологии": <http://psvchology.net.ru/articles>